

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

Qo'lyozma huquqi

UDK: 6.03.2:658:336

MAXMUDOV SAMARIDDIN BAXRIDDINOVICH

**LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan**

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar:
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor R.X. Karlibayeva**

Toshkent- 2023 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORXONALARNI MOLİYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.	
1.1.§. Iqtisodiy tizimda logistikaning o‘rni va ahamiyati.....	12
1.2.§. Logistika tizimi va korxonalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari.....	24
1.3.§. Logistika tizimidagi korxonalar faoliyatini moliyalashtirish usullari.....	36
1.4.§. Logistika korxonalarini ta‘minot zanjirini moliyalashtirishning ilg‘or xorijiy tajribasi.....	46
1-bob bo‘yicha xulosa.....	58
II BOB. O‘ZBEKISTONDA LOGISTIKA TIZIMINI MOLİYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.	
2.1.§. Logistika korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalarining tahlili.....	60
2.2.§. Logistika korxonalarini aktivlari va uni moliyaviy natijalar samaradorligiga ta‘sirining tahlili.....	72
2.3.§. Logistika tizimidagi korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	86
2-bob. bo‘yicha xulosa.....	102
III BOB. MILLIY IQTISODIYOTDA LOGISTIKA KORXONALARI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.	
3.1.§. Logistika korxonalarida aylanma aktivlarni samarali boshqarish orqali moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni optimallashtirish yo‘llari.....	104
3.2.§. Logistika tizimini moliyalashtirish orqali eksport amaliyotlarini rejalashtirish va prognozlashtirish.....	118
3-bob bo‘yicha xulosa.....	135
Xulosa.....	138
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	142
Ilovalar.....	158

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida makrodarajadagi iqtisodiy o‘rningning yuqori sur‘atlarini ta‘minlashda logistika sohasi o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ma‘lumotlariga ko‘ra, “logistika infratuzilmasining roli Osiyo mamlakatlariga 2030-yilgacha o‘rning borayotgan talabni qondirish uchun 8,4 trillion dollar sarmoya kiritishni talab qiladi”¹. Hozirgi global pandemiyadan keyingi sharoitda mintaqalarda logistika infratuzilmasini moliyalashtirish taqchilligiga xususiy sektor kapitalini jalb qilish bo‘yicha innovatsion choralarga ehtiyoj mavjud. Logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sektor ishtirokini yaxshilash, moliyaviy kafolatlar va soliq tushumlaridan foydalanish, mamlakatlar infratuzilmasini moliyalashtirish kabi muammolarni o‘rganishga zarurat ortmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish hamda logistika ta‘minoti zanjirlarini moliyaviy jihatdan rivojlantirish, shuningdek, logistika infratuzilmasidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Daromadlarni prognoz qilish va investitsiyalarni rejalashtirishda talabning noaniqligi, omborlar, transport vositalari va texnologiya kabi aktivlarga sarmoya kiritish uchun katta miqdordagi kapital xarajatlar, o‘zgaruvchan operatsion xarajatlar, tartibga solish muammolari, raqobatbardoshlikni ta‘minlash, logistika kompaniyalarining xarajatlari tarkibini boshqarish va moliyalashtirishga oid masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori o‘rning sur‘atlarini ta‘minlashning muhim omili sifatida logistik ta‘minot zanjirini moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot

¹ World Bank. 2017. Government Guarantees: Allocating and Valuing Risk in Privately Financed Infrastructure Projects. Washington, DC: The World Bank Group; Asian Development Bank. 2017. Meeting Asia’s Infrastructure Needs. Manila: Asian Development Bank.

strategiyasida “xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish hamda yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish”² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Yuqoridagi vazifalarning izchil va samarali amalga oshirilishida logistik ta’minot zanjirini va logistika elementlarini hamda kapital tarkibi manbalarini aniqlash, mahsulotlar eksportining to‘laqonli rivojiga to‘sqinlik qilayotgan g‘ovlarni bartaraf etish, logistika faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy mahsulotlarini tashqi bozorlar eksportida logistika strategiyasini ishlab chiqishning kompleks tizimini rivojlantirishda transport logistikasi, omborxonalar logistika va ishlab chiqarish logistikasidan ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirish hamda moliyalashtirishning uzoq muddatli istiqboldagi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 2 dekabrda PQ-3422-son “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-811-son “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqidagi”, 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-812-son “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. // www.lex.uz.

qonunlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlar S. Bensassi, D.B. Grant, D. Bayram, A. Narayanan, F. Sahin, E.J. Ko, E. Hofmann, B. Marchi, L. Zhao, E. Chuk, H.F. Elmanizar, M. Chen, J.B. Du, O. Afolab, M. Heikal, M. Khaddafi, A. Ummah, P. Grundke va boshqalarni kiritish mumkin³.

Logistika sohasi va korxonalarni moliyalashtirish masalalari yuzasidan MDH davlatlari iqtisodchi olimlari N.P. Karpova, N.Yu. Guseynova, D.R. Peskova, Ye.A. Koroleva, N.G. Pletneva, V.R. Salimova, N.M. Polyanskaya, V. Ivanov,

³ Sami Bensassi, Laura Márquez-Ramos, Inmaculada Martínez-Zarzoso, Celestino Suárez-Burguet "Relationship between logistics infrastructure and trade: Evidence from Spanish regional exports" *Transportation Research Part A: Policy and Practice* Volume 72, February 2015, Pages 47-61., Grant D. B., Wong C. Y., Trautrim A. Sustainable logistics and supply chain management: principles and practices for sustainable operations and management. – Kogan Page Publishers, 2017., Bayram Dada "Efficient warehouse management analysis in logistics services" *Istanbul Ticaret Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi* Yıl:19 Sayı:37 Bahar 2020/1 s.341-352., A. Narayanan, F. Sahin, E.P. Robinson "Demand and order-fulfillment planning: The impact of point-of-sale data, retailer orders and distribution center orders on forecast accuracy" *Journal of Operations Management*, 65 (5) (2019), pp. 468-486., Ko, E. J., McKelvie, A. 2018. Signaling for more money: The roles of founders' human capital and investor prominence in resource acquisition across different stages of firm development. *Journal of Business Venturing*, 33: 438-454. Hofmann, E., Strewé, U., & Bosia, N. (2018). Background I - What is Buyer-Led Supply Chain Finance? In *Supply Chain Finance and Blockchain Technology: The Case of Reverse Securitisation* (1ed.) Springer, Cham. doi:<https://doi.org/10.1007/978-3-319-62371-9>., Marchi, B., Zaroni, S., & Jaber, M. (2020). Improving Supply Chain Profit through Reverse Factoring: A New Multi-Suppliers Single-Vendor Joint Economic Lot Size Model. *International Journal of Financial Studies*, 8(2), 1-16. doi:<https://doi.org/10.3390/ijfs8020023>., Zhao, L., & Huchzermeier, A. (2018). *Supply Chain Finance: Integrating Operations and Finance in Global Supply Chains* (1 ed.). Springer. doi:<https://doi.org/10.1007/978-3-319-76663-8>., Chuk, E., Lourie, B., & Yoo, I. (2021, July 22). The determinants and consequences of reverse factoring: Early evidence from the UK. Retrieved from SSRN: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=389054., H. F. Elmanizar, A. T. Nugraha, A. Yakub, H. Fitri, and B. Priyo Cahyono, "e application of agency theory in supply chain finance: a case of Indonesian manufacturing firms[J]," *International Journal of Supply Chain Management*, vol. 8, no. 3, pp. 23–32, 2019, J. Chen, T. Cai, W. He et al., "A blockchain-driven supply chain finance application for auto retail industry," *Entropy*, vol. 22, no. 1, p. 95, 2020., M. Du, Q. Chen, J. Xiao, H. Yang, and X Ma, "Supply chain finance innovation using blockchain," *IEEE Transactions on Engineering Management*, vol. 67, no. 4, pp. 1045–1058, 2020., Heikal M., Khaddafi M., Ummah A., Grundke P., Kühn A. The impact of the Basel III liquidity ratios on banks: Evidence from a simulation study // *The Quarterly Review of Economics and Finance*. – 2020. – T. 75. – C. 167-190.,

K.A. Paymulina, Yu.V. Budanova, A.A. Zayseva, M.Yu. Alieva, G.A. Kazaryan ilmiy izlanishlar olib borgan⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan G. Samatov, Ya. Karrieva, K. Uldjaboev, D.M. Umarova, M.A Bo‘ronova, J.S. Fayzullaev mamlakat logistika tizimlarini boshqarish samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratganlar va ularning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida o‘z aksini topgan⁵.

M.P. Eshov, Sh.I. Mustafaqulov, A.K. Ibragimov, S.K. Xudoykulov, R.X. Karlibaeva, A.U. Burxanov, X. Kurbanov ilmiy ishlarida moliyalashtirishning nazariy va metodologik asoslarining ayrim jihatlari o‘rganilgan⁶.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning

⁴ Карпова Н.П., Носков С.В., Тойменцева И.А., Чичкина В.Д., Швецова Е.В. Основы принятия стратегических решений в логистике: монография. – ООО Издательство “КУБиК”, 2018.- 138с., Гусейнова Н. Ю. Диссертация. Совершенствование логистических стратегий сбытовой деятельности в производственных отраслях. Баку 2017 г, D.R. Peskova, Julia V. Khodkovskaya, Zarema F. Sharifyanova, Rasilya M. Sibagatullina “International transport logistics as an advanced growth vector of national economies” Palarch’s Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology 2017, Королева Е.А., Бажина Д.Б. Оценка показателей деятельности транспортных организаций на основе методов экономического анализа., Плетнева Салимова В. Р. Анализ дебиторской задолженности //Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2016. – №. 6. – С. 32-32., N.M. Polyanskaya / Digest Finance, 2020, vol. 25, iss. 3, pp. 333–362., Иванов В. Кому доверить управление активами // Управление компанией. 2016. № 2. С. 46-49., Паймулина К. А., Павлович В. Е. Анализ оборачиваемости оборотных средств предприятия и разработка мероприятий по оптимизации материальных запасов // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 4-2. – С. 175-180., Буданова Ю. В., Зайцева А. А., Маклюк В. С. К вопросу об оценке рентабельности компании // EUROPEAN RESEARCH. – 2017. – С. 188-191., Алиева М. Ю. ОПЫТ АНАЛИЗА РЕНТАБЕЛЬНОСТИ КОМПАНИИ // EUROPEAN RESEARCH. – 2017. – С. 188-191. // Управление финансовым учетом. – 2021. – №. 10-3., Казарян Г.А. “Анализ собственного капитала предприятия” «Хроноэкономика» № 3(24). Май 2020.

⁵ Г.А. Саматов Б.И. Камилджанов Ф.Р. Галимова “Логистик бошқарув концепциялари ва моделлари” Ўқув қўлланма. Тошкент 2015; Қорриева Я.К. Ўзбекистонни жаҳон бозорига чиқиши учун халқаро йўлақлардан самарали фойдаланишнинг логистик транспорт муаммолари. Иқт. фан. док. ... дис. автореф., Тошкент 2004; Ульджабоев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте – Тошкент, “Мехнат”, 1999г., Умарова Д.М.Бўронова М.А. Логистика: Ўқув қўлланма-Тошкент, ТошДТУ, 2006 – й, Ж.С.Файзуллаев Транспорт-логистика тизими: муаммо ва ечимлар. Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U.K December 28th, 2020

⁶ Эшов, М. (2019). Корхоналарда молиявий фаолиятнинг пул оқими ўсишига ва пасайишига таъсирини баҳолаш масаллари. Экономика и инновационные технологии, (4), 70–80. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10848., Мустафақулов Ш.И. Инвестицион мухит жозибадорлиги. Илмий-амалий қўлланма. /Ш.И. Мустафақулов. – Тошкент: Baktria press, 2017.- 33 бет”, А.К.Ибрагимов, Ризаев Н.К Молиявий ҳисобот ва пандемия. Молия ва банк иши журнали, 2020, 2-сон Худойкулов С.К. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б., Карлибаева, Р. (2018). Использование классических теорий оптимизации структуры капитала в деятельности национальных акционерных обществ. Экономика и инновационные технологии, (2), 35–49. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9687., Burkhanov, Aktam. "Иқтисодиётнинг реал секторини молиялаштириш тизимини такомиллаштириш." Молия илмий журнали 2-сон 2016. Тошкент., Kurbanov, K. (2021). Zamonaviy iqtisodiyot qarashlar paradigmasida fillips egri chizig'ining barqarorligi. Архив научных исследований, 1(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/100>

ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni nazariy asoslarini o‘rganish;

logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishning nazariy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish;

logistika tizimidagi korxonalar faoliyatini moliyalashtirish usullarini ishlab chiqish;

logistika korxonalari aktivlari va uni moliyaviy natijalar samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish;

logistika tizimidagi korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modelini ishlab chiqish va baholash;

logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirish tizimlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi logistika korxonalari faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib logistika tizimidagi korxonalarining moliyalashtirishning nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va matematik modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq siyosatida milliy logistika korxonalarining xizmat ko'rsatish xarajatlarini minimallashtirish va texnologik modernizatsiyalashga maqsadli investisiyalash orqali qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari tizimi va soliq yukini optimallashtirish taklifi asoslangan;

milliy transport-logistika tizimini moliyalashtirishni logistik korxonalarining aylanma aktivlarini moliyalashtirish manbalari va raqobatbardosh xizmatlar narxini shakllantirishning kompleks vazifalari asosida takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

logistika tizimidagi korxonalarda aylanma mablag'larni optimal boshqarish va uni samarali moliyalashtirishda reversiv faktoring amaliyotidan foydalanish taklifi asoslangan;

logistika tizimidagi korxonalar faoliyatini modernizatsiyalashga investisiya kreditlarini keng jalb qilish hisobiga milliy logistik xizmatlar tizimini modernizatsiyalash va iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

transport logistika korxonalarining yuklarni tashish xizmatlardagi soliq imtiyozlarini taqdim etilishi ushbu korxonalarda tovar aylanma xajmining ko'payishiga va sof daromadlarining o'sishi ilmiy-amaliy asoslangan;

milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotlarini amalga oshiruvchi logistika korxonalari transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun Respublika byudjetidan mablag' ajratilishi zarurligi asoslangan;

logistika korxonalarida faktoring va reversiv faktoring amaliyotlarini amalga oshirish tartibini joriy etish taklifi asoslangan;

milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotlari va logistika xizmatlarining o'zaro bog'liqligi bo'yicha kelgusi besh yil uchun ishlab chiqilgan prognozlar asosida logistika korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, savdoni moliyalashtirish vositalarini ommalashtirish, xususan bank mijozlariga tranzaksion bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirishning nazariy-metodologik va logistika tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish hamda “Transport logistikasi”, “Logistika”, “Temir yo‘l transport korxonalarini boshqarish” fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Logistika tizimidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar asosida:

soliq siyosatida milliy logistika korxonalarining xizmat ko‘rsatish xarajatlarini minimallashtirish va texnologik modernizatsiyalashga maqsadli investisiyalash orqali qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan soliq imtiyozlari tizimi va soliq yukini optimallashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda PQ-3422-son “2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va “Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalar qo‘mitasining 2023-yil 8-iyundagi 05-10/1295-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning

amaliyotga joriy etilishi natijasida transport logistika korxonalarining yuklarni tashish xizmatlardagi soliq imtiyozlarini taqdim etilishi ushbu korxonalarda tovar aylanma hajmining ko'payishiga va sof daromadlarining o'sishiga imkon yaratgan;

milliy transport-logistika tizimini moliyalashtirishni logistik korxonalarining aylanma aktivlarini moliyalashtirish manbalari va raqobatbardosh xizmatlar narxini shakllantirishning kompleks vazifalari asosida takomillashtirish taklifi 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-811-son Qonuni bilan 2022-yil uchun davlat maqsadli jamg'armalarining hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining xarajatlari tarkibida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalar qo'mitasining 2023-yil 8-iyundagi 05-10/1295-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotlarini amalga oshiruvchi logistika korxonalarini transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun Respublika byudjetidan 336 000,0 mln. so'm mablag'lar ajratilgan;

logistika tizimidagi korxonalarda aylanma mablag'larni optimal boshqarish va uni samarali moliyalashtirishda reversiv faktoring amaliyotidan foydalanish taklifi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2022-2025-yillarda rivojlantirish strategiyasiga kiritilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2022-yil 02-noyabrda 03-40/17048-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yil davomida ushbu bank tomonidan jami 12,0 mlrd. so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan;

logistika tizimidagi korxonalar faoliyatini modernizatsiyalashga investisiya kreditlarini keng jalb qilish hisobiga milliy logistik xizmatlar tizimini modernizatsiyalash va iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2022-2025-yillarda rivojlantirish strategiyasiga kiritilgan ("Mikrokreditbank" ATBning 2022-yil 2-noyabrda 03-40/17048-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-2026-yillarda milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotlari va logistika

xizmatlarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha kelgusi besh yil uchun ishlab chiqilgan prognozlar asosida logistika korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, savdoni moliyalashtirish vositalarini ommalashtirish, xususan bank mijozlariga tranzaksion bank xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lamini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 157 betni tashkil etadi.